



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

Vaziyat

2024-yil
28-noyabr
№ 48 (989)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

"YASHIL MAKON" LOYIHASI – YANGI DAVR TAQOZOSI



Ma'lumki, yashil makon – sog'lom havo, musaffo obi hayot va ko'rkam tabiiy manzara uyg'unligidir. Mamlakatimizning har bir hududidagi ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'lmoqda.

Bu boradagi ishlarda FVV shaxsiy tarkibi faol ishtirok etmoqda. Harbiy xizmatchilar tomonidan ayni kungacha millionlab manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekilib, joylarda ko'zni quvontiradigan bog'lar bo'y cho'zmoqda. Xususan, xodimlar tomonidan Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplama"lar barpo etish, yer maydonlarini tomchilatib sug'orish tizimini yaratish, shuningdek, "Obod qishloq" hamda "Obod mahalla" davlat dasturlarini amalga oshirish ishlari shular jumlasidandir. Quvonarlisi, Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev

ham Qoraqalpog'iston Respublikasida "Yashil makon" umummilliy loyihasida ishtirok etdi. Nukus shahri hududida Qoraqalpoq yoshlari bilan manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazdi.

Qolaversa, A.Qo'ldoshev Nukus shahrida tizimda xizmat olib borayotgan yosh harbiy xizmatchilar va xizmatchilar hamda 2-sektor hududidagi yoshlar bilan suhbatlashdi. Uchrashuv davomida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda

amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va bevosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo'lib kelayotgani aytili. Mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bo'lgan, "halollik vaksinasi" bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan samarali ishlar xususida so'z yuritildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joylarda targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini o'rnatish lozimligi ta'kidlandi.

Tadbirda qayd etilganidek, bu loyiha biz nafas olayotgan havo musaffoligini ta'minlashda dolzarb sanaladi. Loyihada faol ishtirok etish orqali nafaqat tabiatni, balki o'z salomatligimizni, qolaversa, kelgusi avlodlar sog'lig'ini saqlashga hissa qo'shgan bo'lamiz. Loyihaga hissa qo'shish vatanparvarlik,

elparvarlik va donishmandlik namunasidir. Yurt ravnaqi, mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, avlodlar saodati yo'lidagi ezgu ishlardir. Unda faol ishtirok etish o'zini oqil va fozil hisoblagan har bir insonning dolzarb vazifasi hisoblanadi.



Ta'kidlandiki, butun dunyoda iqlim o'zgarishi natijasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Shuning uchun ham yangi o'n yillikning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Yurtimiz obodligi yo'lida olib borilayotgan ishlar, ayniqsa, hududlarni ko'kalamzorlashtirish, yashil hududlar tashkil etish ona-tabiatimiz musaffoligini ta'minlash bilan birga, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, salomatligimizni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, A.Qo'ldoshev Nukus shahridagi Boshqaruv servis kompaniyalari rahbarlari bilan ham uchrashuv o'tkazdi. Kompaniya rahbarlariga yanada sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi.

A'LOCHI XODIMLAR



Jizzax viloyatida "A'lochi xodim" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi o'tkazildi.

Unda vazirlikning hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalaridan 18 ta jamoa ishtirok etib jangovar jismoniy va yong'in-qutqaruv saf tayyorgarligi borasida nazariy va amaliy ko'nikmalari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Vazirlik tizimida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlar va turli sport musobaqalari, shu jumladan "A'lochi xodim" ko'rik-tanlovi ham shaxsiy tarkibning ijodiy izlanishga, kasb mahoratini yanada oshirishga, xodimlar va xizmatchilarning o'zaro tajriba almashishlariga, ularning malakasini oshirishga hamda ilg'or ish uslublarini tatbiq etishga xizmat qiladi.

Mazkur ko'rik-tanlovda tuman, shahar va viloyat bosqichlarida yuqori natijalarni qayd etib, respublika

birinchiligida ishtirok etish uchun Jizzax viloyatiga tashrif buyurgan xodimlar o'rtasida ikki kun davomida bo'lib o'tgan murosasiz bellashuvlarda kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismlari boshliqlari o'rtasida 3-o'rinni Buxoro viloyati FVB vakili kichik serjant Shamshod Murtazayev, 2-o'rinni Namangan viloyati xodimi oddiy askar Zokir Abdurasulov va birinchi o'rinni Farg'ona viloyati FVB vakili serjant Hasanboy Hasanovlar egalladilar.



Kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchilari o'rtasida 3-o'rinni Farg'ona viloyati FVB vakili xizmatchi Komiljon Akbarov, 2-o'rinni Andijon viloyati FVB vakili xizmatchi Husniddin Sotvoldiyev va 1-o'rinni Namangan viloyati FVB xodimi xizmatchi Sherali Ismoilovlar egalladilar.

Kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi smena boshliqlari o'rtasida esa 3-o'rinni Toshkent viloyati FVB xodimi xizmatchi Tolipov, 2-o'rinni Andijon

viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi vakili xizmatchi Abdurashidov va 1-o'rinni Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi vakili xizmatchi Radjabovlar egalladilar.

Harbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi boshliqlari o'rtasida 3-o'rinni Toshkent viloyati FVB vakili katta leytenant Farruh Hamidov, 2-o'rinni Samarqand viloyati FVB vakili kapitan Sherxon Muhammadiyev va 1-o'rinni Jizzax viloyati FVB vakili mayor Azamat Sanaqulovlar egalladilar.

Harbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi smena boshliqlari o'rtasida 3-o'rinni Samarqand viloyati FVB vakili kapitan Azim Rahimov, 2-o'rinni Andijon viloyati FVB vakili kapitan Otabek Qurbonov, 1-o'rinni Navoiy kon-metallurgiya kombinati vakili kapitan Muhriddin O'tkirovlar egalladilar.

Harbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchilari o'rtasida 3-o'rinni Moxsus vazifalarni bajaruvchi respublika qutqaruv markazi vakili oddiy askar Alibek Sharopov, 2-o'rinni Navoiy kon-metallurgiya kombinatidan oddiy askar Azizbek Meliyev, 1-o'rinni Jizzax viloyati FVB vakili oddiy askar Karim Mamatqulovlar egalladilar.

Yakunda g'olib va sovrindorlar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirladilar.

Sahifani Anvar QOBILOV hamda Iftixor UMAROV tayyorladi.

O'RGANISHLAR DAVOM ETDI

Qarshi harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat hududida joylashgan harbiy qism va muassasalarda hamda harbiy shaharchalarda o'rganishlar olib borildi.

O'rganishlar davomida qozonxona va energiya tarmoqlarining qish mavsumiga shayligi, bunda energotejamkor uskunalardan foydalanilganligi, shu jumladan, energiya samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga e'tibor qaratildi.

Jarayonlarda mas'ullar bilan muloqotlar o'tkazilib, tegishli ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, harbiy prokuraturaga biriktirilgan olis

hudud –Chiroqchi tumanidagi 91-92- va 107-sonli umumta'lim maktablarida vatanparvarlik ruhidagi mavzularda mashg'ulotlar amalga oshirildi.

O'zaro samimiy suhbatlar chog'ida o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berilib, tadbirdan so'ng maktablarda yaratilgan sharoitlar o'rganildi.

Qurbondurdi POLVANNAZIROV,

Qarshi harbiy prokurorining yordamchisi, adliya kapitani.

PROKURORLIK SOATLARI

Samarqand viloyati Nurobod tumanining olis hududida joylashgan 59-sonli umumta'lim maktabida "Prokurorlik soati" o'tkazildi.

Unda o'quvchilarga Konstitutsiyamizning yaratilish tarixi, yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizning mohiyati, avvalgi tahrirdan farqli jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlar haqida tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yaratil-

gan sharoitlar xususida tushunchalar berildi.

Tadbir davomida maktab o'quvchilariga ta'lim tizimini isloh qilish, o'quvchilarning sifatli ta'lim olish borasidagi islohotlar haqida ham batafsil ma'lumotlar berildi.

Azamat GULAMOV,
Samarqand harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya kapitani.

KORRUPSIYASIZ KELAJAK QOLDIRAYLIK!

Navoiy viloyati FVB mas'ullari tomonidan boshqarma hamda "Navoiyazot" AJ OYX-TTEB 15-YQQism shaxsiy tarkibi bilan korrupsiya va huquqbuzarlik holatlariga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish maqsadida profilaktik suhbatlar va tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Uchrashuv davomida ma'ruzachilar tomonidan barcha xodimlar o'z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, yuqori professional darajada va va-

kolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, har qanday vaziyatda o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashi, odob-axloq va kasb etika qoidalariga rioya qilishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Mansur UMIRZOQOV,
Navoiy viloyati FVB SHXB boshlig'i, mayor.

Asomiddin IKROMOV,
Navoiy viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

DOG'

Sudda giyohvandlik vositasini, ya'ni "tabletka" va "tomizg'i" sotish bilan shug'ullangan I.L. ismli ayolning ishi ko'rib chiqildi.

U sud zaliga qo'lga kishan solingan holda olib kirildi. Juda ayancli holat. Nega bu ayol shu ahvolga tushdi? Ma'lum bo'ldiki, 31 yoshli ayolning 2 nafar voyaga yetmagan farzandi bor.

Aniqlandiki, I.L. ilgari ham sudlangan ekan. Jinoiy shrikli bilan til biriktirib, "Tropikamid" va "Zarleks" nomli kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini sotish bilan shug'ullangan. O'tkazilgan tezkor tadbir jarayonida jinoiy guruh a'zolari

ashyoviy dalil bilan qo'lga olingan.

– Qilgan ishmdan pushaymon, – dedi sudlanuvchi. – Oilaviy sharoitimni, voyaga yetmagan 2 nafar farzandim borligini inobatga olib, yengillik berishingizni so'rayman.

Sud ayolga jazo tayinlashda barcha jihatlarni e'tiborga oldi. U uch yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Qilmishidan xulosa chiqarish uning o'ziga havola. Aslida to'g'ri yurib, halol ish tutganida ayolning qo'lga kishan emas, gul tutilardi...

Alisher JALILOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudining raisi.

TAASSUROTLARGA BOY BO'LDI

Urganch harbiy prokuraturasi va hamkor idoralar hamkorligida Xorazm viloyatining chegarasida hududida joylashgan "Bo'yrachi" mahallasida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Dastlab "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida belgilangan hududga ko'chatlar ekildi.

So'ngra sog'lom hayot uchun 10 ming qadam piyoda yurish tadbiri amalga oshirildi.

Shu bilan birga, 38-sonli maktabda

o'quvchi-yoshlarga harbiy xizmatchilarning chiqishlari namoyish qilinib, oziq-ovqat, o'quv anjomlari, kitob va energiya tejankor uskunalar ko'rgazmalari tashkil etildi.

Jarayonda harbiy prokuror va yoshlar, "Uch avlod" uchrashuvlari o'tkazildi.

Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya kapitani.

SHOVOTDAGI TADBIR

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Xorazm viloyatining Shovot tumanida o'rganishlar olib borildi.

Xususan, "Bo'ston" mahallasida energotejamkor uskunalar ko'rgazmasi o'tkazilib, mutaxassislar ishtirokida energiya samaradorligini ta'minlashda e'tibor qaratish muhim hisoblangan ma'lumotlar yetkazildi.

Ijtimoiy soha obyektlarida jumladan, tibbiyot punkti va 44-sonli maktabda qish mavsumiga tayyorgarlik va energiyani iqtisod qilish borasidagi ishlarga e'tibor qaratildi.

So'ngra aholi bilan hamjihatlikda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ajratilgan hududga ko'chatlar ekildi.

Jarayonda fuqarolar bilan ochiq muloqot o'tkazilib, ularning muammolari o'rganildi va hal etish bo'yicha amaliy choralar ko'rildi.

Mutasaddi tashkilotlar jalb etilgan holda bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Arzonlashtirilgan oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkasi ham mahalla ahli uchun ayni muddao bo'ldi.

Aholi uchun tashkil etilgan tibbiy ko'rikda esa bolalar, xotin-qizlar, nuroniy otaxon va onaxonlar ko'rikdan o'tkazilib, shifokorlar tomonidan tibbiy tavsiyalar berildi.

Sirojiddin CHORIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori, adliya mayori.

PIROTEKNIKA BUYUMLARI YO'Q QILINDI

Poytaxtimizda Bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda katta xajmdagi piroteknika buyumlarini yo'q qilish tadbiri tashkil etildi.

Yashnobod tumanidagi favqulodda vaziyatlar bo'limining 20-yong'in-qutqaruv qismida bo'lib o'tgan tadbirda noqonuniy muomaladan olib qo'yilgan yirik miqdordagi, ya'ni 4 mln. 65 mingdan ortiq piroteknika buyumlari dastlab

suvga bo'ktirilib, yaroqsiz holatga keltirildi hamda maxsus xandaqqa ko'mish yo'li bilan yo'q qilindi.

Bojxona qo'mitasi boshqarma boshlig'i A.Ahlimirzayevning ma'lum qilishicha, yo'q qilingan piroteknika vositalarining salkam 88 foizi bir yil davomida bevosita bojxona organlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlar davomida noqonuniy muomaladan olib qo'yilgan.

"Xalq so'zi" gazetasidan olindi.

QONUNLARNING MAZMUN-MOHIIYATI

"Aksikorrupsiyaviy oyligi" doirasida Namangan shahar FV bo'limida harbiy xizmatchi va xizmatchilar ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda viloyat FVB mas'ul xodimi tomonidan shaxsiy tarkibga "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlarning mazmun-mohiyati, korrupsiyaga oid ma'muriy hamda jinoiy javobgarliklar haqida tushunchalar berildi.

Shaxsiy tarkib tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olishda hamda bartaraf etishdagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifani bajarish uchun funksional vazifani sidqidildan

bajarish, harbiy va mehnat intizomiga rioya etish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatini ko'rib chiqishda mansab vakolatini suiiste'mol qilmaslik, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtlarda taalluqli bo'lmagan ishlarga aralashmaslik, turli tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarini o'ynamaslik, yo'l harakati qoidalariga rioya etish, giyohvand va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan shug'ullanmaslik kabi masalalarga to'xtalib o'tildi.

Utkirbek KALONOV,
Namangan viloyati FVB SHXB xodimi, podpolkovnik.

MAVSUM MAS'ULIYATI

Navoiy shahar FV bo'limi hamda sohaviy xizmatlar, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlar profilaktikasi" kunlari "Yangiariq" mahallasi hududida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Bo'limning ish rejalarida tasdiqlangan tadbirlar va nazorat rejasi talablari dolzarbligini inobatga olgan soha xodimlari tomonidan mahalladagi 458 ta xonadonlarning yong'inga qarshi

holati o'rganib chiqildi. Turar joylarni o'rganish jarayonida asosiy e'tibor bino va inshootlarga o'tkazilgan elektr sim va kabellarning holati, gaz jihozlarining sozligi, manbaga o'rnatilgan tartibda ulanganligi, isitish pechlari dudburonlarining yong'in xavfsizligi talablari darajasida o'rnatilganligiga qaratildi.

Abdulla AKATOV,
Navoiy shahar FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

HUSHYORLIKKA CHAQIRILDI

Joriy yilning 15-noyabridan 15-dekabr kuniga qadar yurtimizda "Yong'in xavfsizligi oyligi", deb e'lon qilindi. Ushbu oylik har yili o'tkaziladi. Sababi, insonlarni hushyorlikka chaqirish hamda aholini qiyinayotgan muammolarga yechim topish, kuz-qish mavsumini talafotsiz o'tkazib olishdir. Buning uchun soha vakillari tomonidan jadal ishlar olib boriladi.

Yurtimiz bo'ylab barcha joylarda yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy

amal qilish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi, noxush voqealar sodir bo'lishining oldini olish mavzularida turli xil uchrashuvlar, davra suhbatlari va yo'riqnomalar tashkil etilmoqda.

Gulchiroy MURADOVA,
Toshkent shahar FVB "Vostok"
II CHB DUK YXTTEB kichik inspektori,
kichik serjant.

SAMARALI ISHLAR

Yurtimizning har bir hududida kuzgi va qishki mavsumga tayyorgarlik ko'rish borasida keng ko'lamdagi amaliy ishlar davom etmoqda. Xususan, ko'p qavatli uylarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash, kamchiliklarni aniqlash va ularni vaqtida bartaraf etish maqsadida xatlov o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Uylarning yerto'la qismiga individual issiqlik punkti o'rnatish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-

harakatlar aholiga qulay sharoitlar yaratish hamda turli ko'ngilsizliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tashkil etilgan ishchi guruhlarini hududlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsumni betalafot o'tkazish, mahallalarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha faoliyat olib bormoqda.

A. PARDAYEV,
Sherobod tumani FV bo'limi P va
NB boshlig'i, podpolkovnik.

JUDA FAOL BO'LAYLIK

Yong'inlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida yurtimizda joriy yilning 15 noyabridan 15 dekabr qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlari, shuningdek, aholi turar-joylarining yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish va bu ishlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Shu kunga qadar yong'in xavfsizligi qoidalari talablarini targ'ib qilish hamda bu borada fuqarolarning, ishchi-

xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida qator uchrashuv va yig'ilishlar o'tkazildi. Aholiga isitish pechlari va gaz moslamalaridan foydalanish qoidalari, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, fuqarolarni is gazidan zaharlanishi va boshqa noxush holatlarining oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadida eslatma, yo'riqnomalar va plakatlarni tarqatildi.

Otabek XUSHVAQOV,
Qamashi FV tumani bo'limi Tezkor
bo'lim boshlig'i, kapitan.

O'QUV MASHQI

Guliston tumanida "Boshqaruv organlari, favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy va quyi tizimlari kuch va vositalarining tabiiy hususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha harakatlari" mavzusida qo'momdonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

Dastlab, "O'zbektelekom" AK viloyat filiali orqali berilgan signal asosida Guliston tumani telekommunikatsiya bog'lamasi tomonidan boshqaruv organlari, FVDT xizmatlariga xabar berildi. Shundan so'ng, tuman hokimligi binosida Guliston tumani boshqaruv organlari, FVDT xizmatlari rahbarlari bilan o'quv mashqini o'tkazish tartibi va g'oyasini yetkazish, FVDT xizmatlari rahbarlarining o'quv mashqiga tayyorgarligi bo'yicha axborotlarini eshitish maqsadida tezkor yig'ilish

bo'lib o'tdi. Amaliy jarayonlarda zilzila oqibatida yuzaga kelgan vayronliklar ostidan jabrlangan fuqarolarni qidirib topish, qutqarish va tibbiy yordam ko'rsatish, yong'inlarni o'chirish ishlarini olib borildi.

Abdurauf ESONOV,
Sirdaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
kapitan.
Davronbek SULAYMONOV,
boshqarma axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.

G'OLIB KURSANT

Yangi O'zbekiston bog'ida "Yangi Nafas" yugurish musobaqasi doirasida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan "Talaba yugur" sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Ushbu sport musobaqasida oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari ishtirok etdi.

3 km. masofa bo'ylab qizg'in va murosasiz kechgan bellashuv natijalariga ko'ra, Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasining 5-batalyon kursanti Akobir Kironboyev 2-o'rinni egalladi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV akademiyasi katta o'qituvchisi,
mayor.

OYLIK DOIRASIDA

Havo sovib borgani sayin isitish moslamalariga ehtiyoj ortib boradi. Shu davrda tabiiy gaz yoki muqobil yoqilg'i mahsulotlaridan foydalanish hajmi keskin oshgani sababli uylarda, tunda insonlar qoladigan joylarda ehtiyot-choralariga amal qilmaslik holatlari ko'p uchraydi.

Isitish muammosi bilan bog'liq fojialarning tez-tez bo'lib turishi sababli qish fasli yilning eng tashvishli mavsumi hisoblanadi.

Ushbu oylik doirasida birinchi galdah aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish asosiy maqsad qilib olingan.

A. JAVLIYEV,
Sherobod tumani FV bo'limi boshlig'i,
mayor.

YO'RIQNOMALAR BERILDI

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK tasarrufidagi barcha ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini, sexlarda hamda yangi qurilayotgan obyektlarda uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda ko'rgazmali qurollardan, ya'ni maxsus videoroliklar, eslatma va plakatlarni, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalaridan keng foydalanilayapti.

Bundan tashqari, korxonalarining ishchi xizmatchilari bilan yong'in

xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari bo'yicha yo'riqnomalar hamda yong'in sodir bo'lganda ularning harakatlanish tartib-qoidalariga amal qilishlari yuzasidan tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda.

Ma'rufjon HAYITOV,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati"
AJ va "Navoiyuran" DK Yong'in
xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish
markazi xodimi, katta serjant.

QURILISH OBYEKTLARIDAGI HOLAT

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida Andijon shahar, Navoiy shoh ko'chasidagi "Business House" MCHJ tomonidan qurilish ishlarini olib borilayotgan 12 qavatli turur-joy binosida yong'in va zilzila vaqdidahar qandahar harakatlanish bo'yicha o'quv amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

Qurilish ishlarini davrida yong'in xavfsizligi, shaharsozlik va qurilish normalari va talablariga rioya qilinishi masalasida 930 marotaba qurilish

obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, unda 7473 nafar quruvchi, pudratchi va ishchilar bilan profilaktik suhbatlar, yig'ilishlar va uchrashuvlar olib borildi. 500 dan ortiq tayyorlangan eslatma va yo'riqnomalar ishlab chiqilib qurilish obyektlariga tarqatildi.

U. QOSIMOV,
Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
podpolkovnik.

ADOLATLI JAMIYAT SARI

Korrupsiya bu – har qanday jamiyat uchun tahlikali illat. Bu hodisa davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga jiddiy zarar yetkazadi, xalq ishonchini so'ndiradi va taraqqiyotga to'siq bo'ladi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Korrupsiya nafaqat davlat idoralarida, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, sud-huquq tizimi kabi turli sohalarda ham uchraydi. Bu esa fuqarolarning keng imkoniyatlardan foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, korrupsiya davlat byudjeti mablag'larining samarasiz sarflanishiga sabab bo'ladi, investitsiyalar oqimini pasaytiradi va jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat yoki jamoatchilikning vazifasi emas, bu har bir fuqaroning burchidir. Korrupsiyani yengish orqali biz davlatni mustahkam, jamiyatni farovon va kelajakni porloq qila olamiz. Adolatli jamiyat qurish uchun korrupsiyaga qarshi kurashamiz!

Azamat AMANOV,
Toshkent shahar FVB shaxsiy
xavfsizlik bo'limi xodimi, mayor.

YONG'INGA YO'L QO'YMANG

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan tumandagi Milliy Gvardiya qo'riqlash bo'limida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar ishtirokida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida hamda kuz-qish mavsumiga doir targ'ibot tadbirlari olib borildi.

Tadbirlar davomida bugungi kunda mamlakatimizda hamda tumanda sodir bo'layotgan turli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari, kelib

chiqish sabablari, yong'inlar va ularning oqibatlari, insonlarning tan jarohat olish holatlari, eng achinarlisi, insonlarning o'limi bilan bog'liq holatlar ham uchrayotganligi haqida ham to'xtalib, misollar bilan tushuntirib o'tildi.

A. HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi
inspektori, katta leytenant.
Sh. XOLMATOV,
katta leytenant.



MUZEYGA SAYOHAT

Farg'ona viloyati FVB "FNQIZ" MChJ obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 25-27-yong'in-qutqaruv qismlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, Farg'ona davlat universiteti tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga tashrifi amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, bu kabi ekskursiyalar xodimlarga ma'naviy ozuqa berish bilan birga ularda vatanga muhabbat, ajdodlarimizga, tariximizga bo'lgan faxr tuyg'ularini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ahliddin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati rahbari,
kapitan.

ZAHARLANISHGA OLIB KELMASIN

Qorao'zak tumani FV bo'limi tomonidan tuman sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi xodimlari bilan birgalikda, aholining oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishning oldini olish bo'yicha dehqon bozorlarida, savdo do'konlarida va ovqatlanish joylarida, shuningdek, muassasalarda, korxonalarda, tashkilotlarda targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad, zaharlanish bilan bog'liq bo'lgan favulodda vaziyatlarning oldini olishdir.

S.NURABULLAYEV,
Qorao'zak tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
kapitan.

KONDAGI VOQEA

"Qizilqum" kon boshqarmasiga qarashli "Pistali" koni avtotransport uchastkasida barcha kon texnikalari hamda yong'in o'chirish texnikalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha ko'rgazmali chiqish namoyish etildi.

– "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning quyi tizim vakillari tomonidan reja chora-tadbirlari ishlab chiqildi, – deydi Janubiy kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni obyektlarida yong'in xavfsizligining ta'minlashni tashkil etish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Bobojon Abdurahmonov. – Barcha o'ta muhim va toifalangan obyektlarda targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi. "Qizilqum" kon boshqarmasiga qarashli "Pistali" koni ishchi-xodimlari o'rtasida oylik doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan reja tadbirlarni belgilab oldik.

Tadbirda 15-yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchilari tomonidan "Pistali" koniga qarashli shaharchada istiqomat qiluvchi ishchi-xodimlar o'rtasida maxsus-taktik o'quv mashqi tashkillashtirildi.

Tadbir so'nggida korxonada hududiga "Yashil makon" tadbiri doirasida daraxtlar ekildi.

Bekzod G'OFUROV,
Janubiy kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.
Ma'rufjon HAYITOV,
markaz xodimi, katta serjant.

PROFILAKTIKA

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan "Yangi-obod" MFY hududidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida, yong'in o'chirish avtomashinasi bilan ko'rgazmali profilaktik uchrashuv o'tkazildi. Unda yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in o'chirish maxsus aslahalar haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Sherbek ERKINBOYEV,
Amudaryo tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

SHEROBODDAGI MASHG'ULOT

Surxondaryo viloyati FVB boshchiligidagi Sherobod tumani boshqaruv organlari, favulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish davlat quyi tizimi xizmatlarining "Texnogen xususiyatli favulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda fuqaro muhofazasi tuzilmasi hamda favulodda vaziyatlarda davlat quyi tizimi xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqida viloyat Favulodda vaziyatlar, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash boshqarmalari, Milliy gvardiya, tegishli idora va tashkilotlardan jalb etilgan maxsus texnika va mutaxassislar ishtirok etdilar.

Mashq yakunida esa yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish bo'yicha fikr almashilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

J.JURAYEV,
Surxondaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, mayor.

KO'CHAT EKISH AKSIYASI

Namangan viloyatining Davlatobod tumanidagi "Yangi O'zbekiston bog'i"da ham ko'chat ekish aksiyasi o'tkazildi.

Bayramona tus olgan tadbirda sektor rahbarlari, viloyatdagi barcha mehnat jamoalari, nuroniylar va yoshlar faol qatnashdilar.

Unda viloyat hokimi Shavkatjon Abdurazzoqov, viloyat "Nuroniylar" jamoatchilik kengashi raisi Ikromxon Najmiddinov so'zga chiqib, yashil maydonlarni kengaytirishning ahamiyati haqida to'xtaldilar.

Akmaljon O'RINBOYEV,
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.

MASHQ

Qibray tumani FV bo'limi tomonidan Toshkent davlat agrar universitetida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida yong'in o'chirish va qutqaruv texnikalarini jalb qilgan holda o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulotlar davomida talabalarga favulodda vaziyatlar yuz berganda to'g'ri harakat qilish, yong'in sodir bo'lganda uni birlamchi yong'in o'chirish vositalari orqali tezkorlik bilan bartaraf etish, tezkor xizmatlarga to'g'ri va aniq xabar berish, fuqarolarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish va jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mashqlari amaliy tarzda ko'rsatib berildi.

J.ABDUQAYUMOV,
Toshkent viloyati OYXTTEB F va NB boshlig'i, podpolkovnik.
M.RUSTAMOV,
F va NB inspektori, katta leytenant.

Sirdaryo viloyatidagi Yangiyer temir yo'l stansiyasi hududida "Zilzila oqibatida sodir bo'lgan texnogen xususiyatli favulodda vaziyat, yong'inlar sodir bo'lganda va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar tarqalganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda Favulodda vaziyatlar davlat quyi tizim xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

HAMKORLIKDA O'TDI

Dastlab, qatnashuvchilarga yo'riqnomalar berilib, mashq g'oyasi yetkazildi. Shu bilan birgalikda, mashq davomida shaxsiy va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari bo'yicha ogohlantirishlar berildi.

O'quv mashqi davomida yoqilg'i tashish vagoni va alanganuvchi mahsulotlar ortilgan yuk vagonida sodir bo'lgan yong'in Yangiyer shahar FV bo'limi hamda Xovos yong'in o'chirish xizmati hamkorligida bartaraf etildi.

Mashq yakunida bajarilgan harakatlar tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish borasida qo'shimcha yo'riqnomalar berildi. Har bir o'quv mashqi viloyat FVB rahbariyati tomonidan baholab borildi.

Xayrulla RAXMETOV,
Sirdaryo viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari,
podpolkovnik.
Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.

KO'RGAZMALI SEMINAR



Denov tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ko'rgazmali seminar tashkil qilindi.

Seminar davomida o'qituvchi va o'quvchilarga gaz va maishiy elektr asboblardan, maishiy kimyo vositalaridan foydalanishda, yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar bilan hamda yong'in xavfsizligi jihatidan xavfli bo'lgan boshqa moddalar, materiallar va uskunalar bilan ishlashda ehtiyot choralarini ko'rishga, yong'inni sezib qolganda zudlik bilan yong'indan saqlash xizmatiga xabar berishga hamda odamlarni va mol-mulklarni evakuatsiya qilish choralarini to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

J.JURAYEV,
Surxondaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, mayor.

TAYYORGARLIK

Taxiatosh tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tuman miqyosidagi barcha aholi yashash uylarining qishki mavsumga tayyorgarlik holati o'rganilmoqda. Mazkur o'rganishlar davomida aholi yashash uylarida aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf qilish choralarini ko'rib, nosoz gaz plitalari tuman gaz idorasi xodimlari tomonidan ta'mirlanmoqda.

T.YUSUPBAYEV,
Taxiatosh tumani FV bo'limi katta inspektori,
katta leytenant.
U.ATAJANOV
bo'lim kichik inspektori, katta serjant.

TEXNIKALAR NAMOYISHI

Norin tumani FV bo'limi boshlig'i podpolkovnik Odilbek Sharipov tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" davomida amalda lozim bo'lgan vazifalar daxldor tashkilot rahbarlari hamda mas'ullarga yetkazdi.

Mahallalarda o'tkazilayotgan xonadonbay profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida kuz-qish mavsumida yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlarini

yanada kuchaytirish lozimligi aytib o'tildi. Norin tumani 12-umumta'lim maktabida o'quvchi yoshlarni qutqaruvchilik kasbiga qiziqtirish maqsadida yong'in o'chirish texnikasi va jihozlarning namoyishi bo'lib o'tdi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.
Bekzod MAMADALIYEV,
Norin tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

ZILZILAGA TAYYORLASH

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi ko'p qavatli uylarda "LUOK" MChJ Qashqadaryo viloyatidagi OYXTE bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida zilzila vaqtida jabrlanganlarga yordam be-

rish va qutqarish ko'nikmalarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar o'tkazildi.

G'.DAMINOV,
"LUOK" MChJ
Qashqadaryo viloyati OYXTEB inspektori, kapitan.

TARTIB-QOIDALAR AYTILDI

FVV Akademiyasi harbiy xizmatchilari tomonidan Yangihayot tumanidagi 2-umumta'lim maktabida targ'ibot-tashviqot ishlari samarali tashkil etildi. Mazkur profilaktik tadbirda 2-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchilari, o'quvchilari va ishchi-xodimlari ishtirok etdilar.

Oylik doirasidagi tadbirda mutaxassislar tomonidan tadbir qatnashchilariga favqulodda

vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi natijasida ayanchli oqibatlar, yong'in sodir bo'lganda fuqarolarning harakatlanish tartib-qoidalarini bo'yicha batafsil ma'lumotlar berildi.

Firdavs KARIMOV,
FVV Akademiyasi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi boshlig'i, kapitan.

BOLAJONLARGA SABOQ

Toshkent viloyati Bektemir tumani FV bo'limi tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida tumandagi 575-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari va tarbiyalanuvchilari ishtirokida profilaktik tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida bolajonlarga yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot, tarqatma materiallar, plakatlar va boshqa turli o'yin-

lar, shuningdek, yong'in paytida qanday harakat qilish tartibi o'rgatildi.

Ayni paytda tuman hududida bu kabi tadbirlar davom ettirilmoqda.

A.MAHMUDOV,
Bektemir tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.
D.KENDJABAYEV,
bo'lim bo'linma katta inspektori, mayor.

YO'RIQNOMA

Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinbayev tomonidan Namangan shahridagi Ixtisoslashtirilgan Ma'daniyat maktabida "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish profilaktika" kuni munosabati bilan dahldor tashkilotlar xodimlari ishtirokida xizmat oldi yo'riqnomasi o'tkazildi.

Shahar FV bo'limining yong'in-qutqariv avtomashinasi va unda asbob-anjomlar

yaqindan tanishtirilib, o'quvchi-yoshlarga yong'in o'chirish qurolidan foydalanish tartibi tushuntirildi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.
Ahadjon ASQAROV,
Namangan shahar FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

MA'LUMOT BERILDI

Uchquduq tumanidagi 7-umumta'lim maktabida kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida ShKB OYXTEB inspektorlari hamda 6-YQQ shaxsiy tarkibi tomonidan tadbir o'tkazildi.

Unda profilaktika xodimlari o'quvchilarga favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning kelib chiqish sabablari ha-

rakatlanish tartibi, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari haqida to'liq ma'lumot berildi.

Sunnatillo NIZOMOV,
NKMK AJ va Navoiyuran DK OYXTEMarkazi ShKB OYXTEB 6-YQQ boshlig'i, mayor.
Davron ASADOV,
bo'lim kichik inspektori, serjant.

KIBERXAVFSIZLIK – DAVR TALABI

FVV akademiyasida "Bugungi kunda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar turlari" mavzusida targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Toshkent shahar IIBB, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi katta inspektori katta leytenant Sodiqjon Xudoyqulov, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi Yangihayot tumani bo'lim boshlig'i mayor Abdumannob Shadiyev, katta inspektori katta leytenant Sherzodbek Kamolov hamda leytenant Javohir Fayziyev, akademiya harbiy xizmatchilari, xizmatchilari va kursantlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga bugungi kunda dunyo miqyosida tahdid sifatida e'tirof etilayotgan kiberjinoyatchilik, ya'ni axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari



va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar hamda kiberbulling, ya'ni internetdagi zo'ravonliklar, haqoratlash, tuhmat va boshqa g'arazli maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan harakatlarning zararli oqibatlari to'g'risida tushunchalar berib o'tildi.

Komiljon NORTILLAYEV,
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, kapitan.

KORXONADA...

Yashnobod tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan Mirzo Ulug'bek ko'chasidagi "QON PREPARATLARI" ilmiy ishlab chiqarish korxonasida o'quv mashg'uloti o'tkazildi. Mashg'ulot davomida korxonada xodimlariga fuqaro muhofazasi tuzilmalarini maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlarga tayyor-

lash va turli xildagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga e'tibor qaratildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi PvaNB inspektori, katta leytenant.

MAKTABDAGI VAZIYAT

Kosonsoy tumani FV bo'limi shaxsiy tarkibi hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tumandagi 8-umumta'lim maktabida "Zilzila sodir bo'lgan vaqtida to'g'ri harakatlanish va himoyalaniish" mavzusida o'quv

mashg'uloti o'tkazildi. Tadbirda maktabning ishchi-hodimlari va o'quvchilari ishtirok etdi.

M.UBAYDULLO,
Kosonsoy tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

KO'RIK-TANLOV

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan tinglovchilarning savodxonligini yanada oshirish maqsadida guruh jamoalari o'rtasida "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Unda respublikamizning barcha hududiy boshqarmalaridan kelgan yosh qutqaruvchilar ishtirok etishdi. Yosh kitobxonlar "O'zbek tili bilimdoni", "Men sevgan adib", "Men sevgan kitob" kabi shartlar bo'yicha bellashdilar.

Qizg'in bahslarga boy bo'lgan ko'rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra faxrli

1-o'rinni 2-guruh tinglovchisi G'.Ro'ziqulov egallagan bo'lsa, 2-o'rin 3-guruh tinglovchisi D.Abdurashidovga nasib etdi. 3-o'rinni esa 4- va 5-guruh tinglovchilari H.Turopov va Sh.O'sarovlar qo'lga kiritdilar. G'olib va sovrindorlar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

B.BEKMUHAMEDOV,
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

TARG'IBOT

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan tumandagi 38 ta umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan sodir bo'layotgan yong'inlar, is gazi va ovqatdan zaharlanishning oldini olish maqsadida profilaktik uchrashuvlar olib borilmoqda.

Mazkur uchrashuv davomida tumanda shu yilning o'tgan

10 oyi mobaynida sodir bo'lgan 89 ta yong'in natijasida halok bo'lganlar va tan jarohati olganlar, shuningdek, yong'inlar natijasida ko'rilgan moddiy zararlarga to'xtalib, yoshlarga misollar bilan tushuntirib berildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

RUHIY TAYYORGARLIK

Qashqadaryo viloyati FVB qutqaruvchilari uchun noqulay muhitlarda qutqaruv ishlarini olib borish va bu borada bilim-konikmasini oshirishga qaratilgan o'quv mashg'uloti o'tkazildi va yaxshi natijalarga erishildi.

Mashg'ulot so'nggida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi.

L.RAJABOV,

Qashqadaryo viloyati FVB otryad komandiri, podpolkovnik.

DOVONDA NIMA GAPLAR ?

“Qamchiq” dovonida mavjud 15 ta mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlarining qishki mavsumga shayligini ta'minlash maqsadida ishchi guruh tomonidan o'rganishlar olib borildi.

Ushbu davrda ayrim kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish ishlari olib borildi. Bir so'z bilan aytganda mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlari jangovar shay holatga keltirildi.

Shu o'rinda aytish kerakki, mavsumda A-373 avtomobil yo'lining “Qamchiq” dovoni qismidan o'tuvchi haydovchilar va yo'lovchilarning betalafot o'tishlarini taminlashda mazkur guruhlar muhim o'rin tutadi.

Sh.NE'MATJONOV,

“Qamchiq” MQYOQB avariya-qutqaruv otryadi “Beshqo'l” AQG komandiri, kichik serjant.

SEMINAR

FVV Akademiyasida “Sun'iy intellekt yordamida (AI) tadqiqot ishlarini yozish va nashr ettirish” mavzusida seminar o'tkazildi.

Unda Malayziyaning Sultan Idris universitetida malaka oshirib qaytgan Adju universitetining ikki nafar olimlari pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari Yulduz Badelbayeva va Nozima Majidovalar ilmiy va innovatsion soha bo'yicha yangiliklar, ilmiy-tadqiqot usullari va olingan natijalarni respublika

va xalqaro miqyosda chop etish yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlarni harbiy xizmatchilar, professor-o'qituvchilar va iqtidorli kursantlarga yetkazishdi.

Maloxat BADALBAYEVA,

FVV akademiyasi Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi, podpolkovnik.

Rushana ROZABOYEVA,

O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

TAVSIYALAR BERILDI

Buxoro viloyati FVB BNQIZ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan zavod markaziy tahlilxonasi ishchi-xodimlariga zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish qoidalari tushuntirib o'tildi. Shartli tarzda zilzila sodir bo'layotganligi to'g'risida xabar berilib, ishchi-xodimlarning

harakatlanishi kuzatildi. O'quv-amaliy mashg'ulot so'nggida yo'l qo'yilgan kamchiliklar muhokama qilindi. Zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish bo'yicha tavsiyalar berib o'tildi.

N.ABDULLAYEV,

BNQIZ OYXTTEB P vaNB inspektori.

SERGELIDAGI YANGILIK

FVV akademiyasi tomonidan hoytaxtimizning Sergeli tumanidagi maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aholining zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishi va ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan profilaktik tadbirlar olib borishdi.

Tadbirlar davomida o'quvchi va ishchi-xizmatchilar ko'chma mobil zilzila simulyatori yordamida zilzila sodir bo'layotganini uy jihozlariga

qarab sezish, zilzila vaqtida xonadonda mavjud buyumlar bilan o'zini himoyalash hamda to'g'ri harakatlarni amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirdilar.

A.LITYAGA,

FVV akademiyasi kafedra boshlig'i t.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik.

Q.YAKUBOV,

kafedra katta o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik.

SEL VA TOSHQIN

Qashqadaryo viloyatidagi Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog', Qamashi va Kitob tumanlari mahalliy hokimliklari balansida bo'lgan 10 ta obyektlarda yig'ma manzilli dasturga asosan o'zan tozalash va qirg'oq mustahkamlash ishlari davlat byudjetidan 10 mlrd.003 mln. so'm miqdorida pul mablag'lari ajratilgan holda FVV huzuridagi Qurilish-muhandislik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ushbu ishlar davomida viloyatning toshqin suvlari va sel oqimlari xavfi mavjud hududlarida joylashgan 74 ta aholi uylarini hamda 10 ta texnik obyektlarni sel-toshqin suvlaridan muhofaza qilinishiga erishiladi.

Farrux XIDIROV,

Qashqadaryo viloyati FVB T va TXFVB kichik inspektori, serjant.

Buxoro viloyatida lift uskunalardan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha seminar tashkil etildi.

MUHOKAMA

Tadbirda viloyat prokuraturasi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, ko'p xonadonli uy-joy fondidan

foydalanishni nazorat qilish inspeksiya-si mas'ul xodimlari, boshqaruv servis kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdilar. Seminarda liftlarni o'rnatish, ta'mirlash, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish, sinov ishlarini bajarishda xavfsizlik masalalari muhokama qilindi.

M.AHMEDOV,

Buxoro viloyati FVB bosh inspektori, podpolkovnik.

“AUMINZO – AMANTOY” KON MAYDONIDA



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ markaziy kon boshqarmasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan Zarafshon shahrining “Auminzo – Amantoy” kon maydonidagi yangi qurilayotgan va

foydalanishda bo'lgan obyektlarda 10 marotaba to'liq, 14 marotaba nazorat tartibida, 503 marotaba tezkor tartibda tekshiruvlar o'tkazildi. Aniqlangan yong'in xavfsizligi qoida-talablarning buzilish holatlari yuzasidan obyekt rahbarlariga 105 ta banddan iborat yozma ko'rsatmalar ijro uchun taqdim etildi.

O.MUSTAFAYEV,

markaziy kon boshqarmasi (Zarafshon) OYOXTTEB bo'linma inspektori, kapitan.

Sh.NORMURODOV,

kichik inspektor, katta serjant.

TUNGI NAZORAT

Xonqa tumanida tungi nazorat-profilaktik tadbirlari kuchaytirilgan tartibda olib borilmoqda. Tuman FV bo'limi tomonidan daxldor tashkilotlar hamkorligida tumanda kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha kun-u tun profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda.

O'rganish va targ'ibot tadbirlari ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlari, bozorlar, savdo majmualari, qurilish obyektlari hamda tunda insonlar qoladigan maskanlarda o'tkazilayapti.

D.NARIMANOV,

Xonqa tumani FV bo'limi PvaNB katta inspektori, katta leytenant.

UZOQ UMR GAROVI

Kuz fasli kirib kelishi bilan kunlar qisqarib, quyoshdan keladigan issiqlik va yorug'lik kamaya boshlaydi. Natijada barglarga yashil rang beruvchi xlorofill moddasi kamayib, barg hujayralarida sariq, qizil, binafsha ranglar ustunlik qila boshlaydi. Bu holat kuzgi barglarda o'simliklar hayoti uchun zararli bo'lgan moddalarning ko'payishiga olib keladi. Bunday moddalar barg hujayralarida yil bo'yi turli jarayonlar davomida yig'ilib qolgan zararli chiqindi moddalar hisoblanadi.

Afsuski, ko'pchilik bundan bexabar, shu sababli bog'larda, ko'chalarda, aholi yashaydigan punktlarda daraxtlardan to'kilgan barglarni, xazonlarni yoqib yuborish holatlari uchray turibdi.

K.DAVKAROV,

Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M katta o'qituvchisi.

M.ORALOV,

o'qituvchi.

BALLONLAR QANDAY SAQLANADI

Qurilishi davom etayotgan bino va inshootlar maydonlarida, shuningdek, qurilish-montaj ishlarida yong'in xavfsizligi tegishli qoidalarga amal qilish orqali ta'minlanadi.

Masalan, barcha ishchi-xodimlar texnika qoidalariga rioya qilgan holda maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi, qurilish maydonlarida payvandlash ishlarini maxsus guvohnomaga ega bo'lgan ishchilar olib borishi lozim. Qurilish maydonlarini yong'in qarghi qalqon

hamda birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlash, nosoz holdagi elektr tarmoqlaridan, ishchilar xonasida nostandart elektr isitish moslamalaridan foydalanmaslik, gaz solingan ballonlar soni 50 dan ortiq bo'lmagan holda maxsus omborxonada yoki quyosh nuri tik tushmaydigan bostirma ostida saqlanishi kerak. To'ldirilgan ballonlar tik holda saqlanishi lozim.

M.ISROYILOV,

Sherobod tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, leytenant.

YANGI O'ZBEKISTON – KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Konstitutsiya o'zida insonning xalqaro umume'tirof etilgan asosiy huquq va majburiyatlarini o'zida jamlagan va oliy yuridik maqomga ega hujjatdir.

Uni xalqchil tilda tushuntiradigan bo'lsak, Konstitutsiya insonlarga mamlakatida erkin yashash, o'zini yurt himoyasida ekanligini his qilishlari uchun sharoit yaratadi. Ushbu Konstitutsiya fuqarolarga muayyan huquq va o'z navbatida majburiyatlarni ham yuklaydi. Shu kungacha qadar qabul qilingan qonun, qaror, farmon, kodeks va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning barchasi Konstitutsiyaga asoslanadi va uni to'ldiradi.

1992-yilning bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 ta moddadan iborat yangi tahriri ishlab chiqildi va u 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko'lamli bo'lib, yuksak ijodiy ko'tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o'tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo'ldi. O'z ruhi va mazmuni jihatidan muhokama davlat va jamiyat hayotining o'ta muhim masalalari bo'yicha butun xalqning umumiy suhbatiga aylanib qoldi. Loyihaning qizg'in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o'zi mustaqil O'zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo'lganligini ko'rsatdi. Qariyb ikki oy davom etgan umumxalq muhokamasidan so'ng bildirilgan taklif va mulohazalar umumlashtirildi va loyiha ushbu taklif va mulohazalar asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O'zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdeq muhokama davomida to'plangan boy materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish va umumlashtirish, uni davlatning mujassam Asosiy Qonuni sifatida ifodalash imkonini berdi. Asosiy Qomusimiz mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga keldi. 1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida muqaddima, 6-bo'lum, 26-bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kun 8-dekabr mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni, deb e'lon qilindi. Konstitutsiyamizda fuqarolarimizni nafaqat O'zbekiston hududida, balki uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatish,

ularning yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, dam olish, bilim olishligi kafolatlangan.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, amalga oshirilgan islohotlar mohiyati ham davlat organlari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, davlat hokimiyati ustidan xalq nazoratini kuchaytirishga qaratilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishga xizmat qilayotganligi tahsinga sazovor. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiya O'zbekiston uchun hayotiy zarurat bo'lib, bu mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, so'nggi olti yilda erishgan yutuqlarimiz, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklolarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo'shnilarimiz bilan oramizdagi "muzlar erigani" va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash, bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo'yish talab etildi. Natijada yangi Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini Yangilangan Konstitutsiyamizda "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" degan norma mustahkamlandi.

Yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, O'zbekistonda huquqiy davlat tamoyili mustahkamlandi, endilikda barcha ja-

rayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan

dan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita Konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan, sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyat-

mamlakatimizda ochiqlik siyosatini davom ettirishdir. Avvalo, Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlandi. Asosiy qonunimizning 69-moddasiga ko'ra: "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa



qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlab chiqarilishi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Yangilangan Konstitutsiyamizdagi muhim o'zgarishlardan yana biri, uning 15-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaning to'g'ri-

lar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi". Ya'ni, endilikda qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi. Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o'tgan taqdirda, masalan, pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

E'tiborlisi, Konstitutsiyamizga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat: "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi". "Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi".

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hayotimizning boshqa muhim sohalarini va ustuvor yo'nalishlari qatori faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga oid normalar ham kiritilganini ta'kidlash lozim. Bundan ko'zlangan maqsad, shubhasiz,

nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi".

Xulosa o'mida shuni alohida ta'kidlash joizki, Yangi Konstitutsiya orqali har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Yurtimizning insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi huquqiy asoslandi. Xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqiyoti, fuqarolarimiz turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Qayd etish joiz, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari asosida shakllantirildi. Bu esa Asosiy qonunimizda jamiyatimizda istiqomat qilayotgan hammaning manfaatlarini inobatga olinganidan dalolat beradi hamda haqiqiy xalq Konstitutsiyasi yaratilayotganining dalolatidir. O'zbekistonda insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi barcha sohalarida birlamchi ahamiyat kasb etishi – davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida belgilandi.

Anvar QOBILOV
tayoqladi.

KITOB – TAFAKKUR QANOTI



FVV Akademiyasida “Kitob – tafakkur qanoti” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi.

Tadbirida akademiya boshlig‘i general-mayor Ravshan Haydarov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Vaziyat” gazetasi va “Muhofaza” jumali birlashgan tahririyati bosh muharriri Azamat Suyunov, birlashgan tahririyat bosh muharriri o‘rinbosari Anvar Qobilov hamda akademiya professor-o‘qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilari va kursantlar ishtirok etdi.

Tadbirida so‘zga chiqqanlar tomonidan yoshlar qalbida yuksak ma‘naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyos ekanligi, kitob asrlarni, zamonlarni, bir-biriga bog‘lovchi rishta ekanligi, shuning uchun har bir kitobxonida kitob o‘qish, axborot olish madaniyatini yanada rivojlantirish lozimligi, nafaqat kitobxonlik, balki ro‘znoma va jumallarni, jahon adabiyotlarini ham tez-tez mutoala qilib, vazirlik tahririyati bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil etish orqali targ‘ibot ishlarining yanada ta‘sirchanligini oshirishimiz lozimligi xususida so‘z yuritdilar.

Shuningdek, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblar, gazeta va jumallarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, badiiy, ma‘rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimini takomillashtirish ayni kunning dolzarb vazifasi hisoblanib, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni yuksaltirishda eng ta‘sirchan omillardan ekanligi alohida ta‘kidlandi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta o‘qituvchisi, mayor.

MA‘NAVIY OZUQA MANBAYI

“Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati va poydevori” FVV Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasida tashkil etilgan navbatdagi ma‘naviy-ma‘rifiy tayyor-garlik o‘quv mashg‘uloti ushbu mavzuga bag‘ishlandi.



Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik V.Gadjiyev, “Vaziyat” gazetasi va “Muhofaza” jurnali birlashgan tahririyati bosh muharriri Azamat Suyunov, birlashgan tahririyat bosh muharriri o‘rinbosari Anvar Qobilov ishtirokida o‘tkazilgan mashg‘ulot davomida kitob inson ma‘naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba ekanligi, uni ko‘p o‘qigan inson mulohazali, bilimli bo‘lib, yuksak tafakkuri bilan boshqalardan o‘zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turishi qayd etildi. Kitobxonlik, mutolaa madaniyati ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kitobxon qilib tarbiyalash xususida so‘z yuritildi.



Davra suhbatini davomida birlashgan tahririyat bosh muharriri A.Suyunov kitob umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun bahsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st ekanligini ta‘kidladi. Ustozimiz tomonidan e‘tirof etilganidek, insonning ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois, azal-azaldan ma‘rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu odob sirlarini o‘rganishga da‘vat qilib kelgan. Mutolaa kishida chin insoniy fazilatlarini shakllantirib, hayotda o‘z o‘rnini topish, jamiyatning chinakam a‘zosi aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega.

– Kitobsiz ilmu ma‘rifatga erishishni, haqiqiy, to‘kis jamiyat qurishni tasavvur qilib bo‘lmaydi, – dedi A.Qobilov. – Demak,

hamma narsa insonning bilimiga, ma‘naviy kamolotiga borib taqalar ekan, kitobxonlik an‘analarini davom ettirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish o‘ta zarur vazifaligi o‘z-o‘zidan ayon. Har bir inson kitoblar orqali uning ma‘naviy xazinasidan, cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanib, o‘zining, o‘zgalarning hayotini mazmunan boyitishi mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir.



Tashkil etilgan tadbir davomida “Vaziyat” gazetasi va “Muhofaza” jurnali targ‘ib qilindi hamda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish joizligi aytiladi. Ta‘kidlanganidek, har ikki nashr sahifalarida bir-biridan ajoyib maqolalar, “Ma‘rifat soati” rukni ostida muhim yangiliklar, harbiy xizmatchilar va xizmatchilar ijodidan namunalarni ham berib boriladiki, bu ham tizimda xodimlarning o‘zaro mehr-oqibatli, ahil-inoq bo‘lishiga, o‘zaro hurmat ko‘nikmalarining shakllanishiga, pirovardida jamoaviy ruhiyatning ko‘tarinki, xizmat faoliyatining samarali bo‘lishiga vosita bo‘ladi.

Muxtasar qilib aytganda, kitoblarga, gazeta va jumallarga bo‘lgan qiziqish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Nashrlar ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish nafaqat bizni ma‘nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.



Iskandar KAJANOV,
FVV Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi bo‘lim katta texnigi, kichik serjant.

FVV Markaziy apparati va shaxsiy tarkibi hamda vazirlik birlashgan tahririyati ijodiy jamoasi FVV faxriysi **Vladimir Gafurovich ZUFAROV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a‘zolariga chuqur ta‘ziya izhor etadi.



Vaziyat

gazetasi

Muassis:
O‘zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir
Azamat SUYUNOV

Gazeta tahririyat
kompyuterxonasida
sahifalandi.

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A.QOBILOV

Sahifalovchi:
B.SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.
Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007 yil
3 yanvarda 0096-son raqam
bilan ro‘yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko‘chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 016-87-67

Indeks:
yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun - 382

Gazeta “Sharq NMAK”
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko‘chasi 41-uy
Buyurtma № G-1152
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.
Adadi - 9400 nusxa